



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 2/2 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 2/2

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 2/2



ТОШКЕНТ-2026

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№2/2 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-2/2>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Fayziev Shoxrud Farmonovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

**Boboyev Halimboy Boboyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Sattorov Abdug'affor**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Yosuke Shamoto**  
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)

**Umarxonova Dildora Sharipxanovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Nematov Jo'rabek Nematilloevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

**Malikova Gulchexra**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Xusanov Ozod Tillabayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Selimanova Svetlana Mixaylovna**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

**Xvan Leonid Borisovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Peshkova Xristina Vyacheslavovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)

**Sung Un Lee**  
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

**Oqyulov Omonboy**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Ruziyev Rustam Jabborovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Borotov Mirodijjon Xomudjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Toshev Boboqul Norqobilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Shomuxamedova Zamira Shoislamovna**  
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)

**Ahmad Issa Altweissi**  
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)

**Mexmonov Kambariddin Miradxamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

**Esanova Zamira Normurodovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jason A.**  
Kanton Federal sud markazi (AQSH)

**Borut Strazisar**  
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

**Usmanova Muborak Akmalxanovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Gasanov Mixail Yuriyevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Sattorova Gulnoza Djurakulovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Murodova Gulnora**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Denisov Gleb**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Fayziyev Shuxrat Xasanovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Usmonov Muhammadi Bahridinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Xolmuminov Juma**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jo'rayev Yuldash Achilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Po'latov Baxtiyor Xalilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Salomov Baxrom Salomovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Osmonaliyev Qayrat**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirzayev Aziz**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Aleksey Kibalnik**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Kudryavtsev Vladislav Leonidovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Sergey Shoshin**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)  
**James B.**  
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

**Rustambayev Mirzayusup Hakimovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Zufarov Rustam Axmedovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Kabulov Rustam**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Rajabova Mavjuda Abdullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ismailov Isomiddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)  
**Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Djansarayeva Rima Ernatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Yelena Antonyan Aleksandrovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Matthew Light**  
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)  
**Qo'shayev Nurali Mahmudovich**  
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


**Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Pulatov Yuriy Safiyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**To'laganova Gulchehra Zaxitovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirzov Davron Miragzamovich**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)  
**Rijakov Aleksandr Petrovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Stoyko Nikolay Genadyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Iskandarov Zayniddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Sergey Pen**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Aleksey Purs**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)  
**Jurgen Maurer**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)  
**Kevin Curtin**  
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

**Ismoilov Bahodir Islamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Yuldasheva Govxerjan**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Alexander Trunk**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

<b>1. Мухамедов Хайдарали Мелиевич</b> ЎРТА АСРЛАР ҲУҚУҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ҲУҚУҚҚА ТАЪСИРИ: ТАРИХИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ.....	5
<b>2. Мирзаев Файзулла Ибодуллаевич</b> ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИНСТИТУЦИОНАЛ ИСЛОҲОТЛАР ШАРОИТИДА ЖИНОИЙ ДАРОМАДЛАРНИ ЛЕГАЛЛАШТИРИШГА ҚАРШИ КУРАШИШНИ ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТДАН ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ.....	14
<b>3. Авлиякулова Матлуба Авазовна</b> КОРПОРАТИВ ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ БИЛАН БОҒЛИҚ МИЛЛИЙ ҚОНУНЧИЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.....	22
<b>4. Baratov Mirodiljon Xomudjonovich, Akramxodjaye Bori Toxtaxodjaye Bori</b> TURISTIK MAHSULOTNING XUSUSIYATLARI VA BU SOHADAGI RAQOBATBARDOSHLIK.....	29
<b>5. Ergasheva Shohista O'ktam qizi</b> KRIPTOVALYUTALARNING TRANSFER JARARAYONIDA QO'LLANILADIGAN HUQUQ MASALASI.....	39
<b>6. Абжалов Абдижаббор Махаммадиевич</b> ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ ЖАМОАТ ИНСТИТУТЛАРИ БИЛАН ҲАМКОРЛИГИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ ВА ТАШКИЛИЙ МЕХАНИЗМЛАРИ.....	46
<b>7. Ғайбуллаев Фаррух Юлдашевич</b> ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИДА ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ ЧЕГАРАЛАРИ.....	54
<b>8. Matkarimov Qudrat Qalandarovich</b> ISHKI ISHLAR ORGANLARIDA QONUNLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATINING O'ZIGA HOS HUSUSIYATLARI.....	62
<b>9. A'zamov Akbarxon Izzatbek o'g'li</b> QASDDAN TO'LOVGA QOBILYATSIZLIKKA OLIV KELISHNING JINOIY-HUQUQIY JINATLARI, O'XSHASH JINOYATLARDAN FARQLI TOMONLARI HAMDA XORIJIY TAJRIBA.....	70
<b>10. Хамидов Нурмухаммад Ориф угли</b> ТОРГОВЛЯ ЛЮДЬМИ КАК ФОРМА ТРАНСНАЦИОНАЛЬНОЙ ОРГАНИЗОВАННОЙ ПРЕСТУПНОСТИ: ПОНЯТИЕ, СОЦИАЛЬНАЯ ОПАСНОСТЬ И УГОЛОВНО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ.....	77
<b>11. Kurbanov Ma'rufjon Mamadaminovich</b> SUN'IY INTELLEKTDAN JINOIY MAQSADDA FOYDALANISHNING JINOYAT-HUQUQIY TAVSIFI, IJTIMOY-HUQUQIY MONIYATI.....	85
<b>12. Насруллаев Фирдавс Сухробович</b> ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ЭКСТРАДИЦИЯ ЖАРАЁНИДА ИЧКИ ИШЛАР ВАЗИРЛИГИНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ ЎРНИ ВА ИДОРАЛАРАРО ҲАМКОРЛИК МАСАЛАЛАРИ.....	92




**12.00.08-УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО**

**A'zamov Akbarxon Izzatbek o'g'li,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi,  
kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish sho'basi o'qituvchisi  
E-mail: izzatullayevich2000@gmail.com

**QASDDAN TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIKKA OLIB KELISHNING JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI, O'XSHASH JINOYATLARDAN FARQLI TOMONLARI HAMDA XORIJIY TAJRIBA**

**For citation:** Azamov Akbarxon Izzatbek ugli. CRIMINAL LAW ASPECTS OF INTENTIONAL INSOLVENCY, ITS DISTINCTION FROM RELATED OFFENCES AND FOREIGN EXPERIENCE. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 2/2.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18839330>

**ANNOTATSIYA**

Ushbu ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 181<sup>1</sup>-moddasida nazarda tutilgan qasddan to'lovga qobiliyatsizlikka olib kelish jinoyatining jinoiy-huquqiy tavsifi yuridik jihatdan tahlil qilinadi. Jinoyatning obyekt, obyektiv va subyektiv tomonlari, subyekt hamda kvalifikatsiya masalalari huquqiy tomondan ochib beriladi. Shuningdek, mazkur jinoyatning soxta bankrotlik va bankrotlikni yashirish kabi o'xshash tarkiblardan farqli jihatlari yoritilib, ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligi bilan qiyosiy tahlil amalga oshiriladi. [1]

**Kalit so'zlar:** Qarzdor, to'lovga qobiliyatsizlik, soxta to'lovga qobiliyatsizlik, to'lovga qobiliyatsizlikni yashirish, qasddan to'lovga qobiliyatsizlikka olib kelish, sud boshqaruvchisi, kreditorlar manfaatlari, iqtisodiy jinoyatlar, sababiy bog'lanish, maxsus subyekt, xorijiy tajriba.

**Аъзамов Акбархон Иззатбек угли,**  
Преподаватель кафедры Уголовного права, криминологии и противодействия  
коррупции Ташкентского государственного юридического университета  
E-mail: izzatullayevich2000@gmail.com

**УГОЛОВНО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ УМЫШЛЕННОГО ДОВЕДЕНИЯ ДО НЕПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТИ, ЕГО ОТЛИЧИЕ ОТ СМЕЖНЫХ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ**

**АННОТАЦИЯ**

В статье проводится уголовно-правовой анализ преступления, предусмотренного статьёй 181<sup>1</sup> Уголовного кодекса Республики Узбекистан, а именно доведения до неплатёжеспособности. Раскрываются объект преступления, объективная и субъективная стороны, субъект, а также вопросы квалификации данного деяния. Кроме того, освещаются отличительные признаки указанного преступления от смежных составов, таких как фиктивное банкротство и сокрытие

банкротства, а также проводится сравнительно-правовой анализ с законодательством отдельных зарубежных государств.

**Azamov Akbarkhon Izzatbek ugli,**  
Lecturer at the Department of Criminal Law, Criminology and  
Anti-Corruption at Tashkent State University of Law

## CRIMINAL LAW ASPECTS OF INTENTIONAL INSOLVENCY, ITS DISTINCTION FROM RELATED OFFENCES AND FOREIGN EXPERIENCE

### ANNOTATION

This article provides a criminal law analysis of the offence stipulated in Article 181<sup>1</sup> of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, namely intentional bringing to insolvency. The object of the crime, its objective and subjective elements, the subject of the offence, and issues of legal qualification are examined. Furthermore, the article highlights the distinguishing features of this offence in comparison with related crimes such as fictitious bankruptcy and concealment of bankruptcy, and presents a comparative legal analysis with the legislation of certain foreign countries.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligi mamlakat iqtisodiy xavfsizligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Korxonalarining sun‘iy ravishda to‘lovga qobiliyatsiz holatga keltirilishi kreditorlar manfaatlariga, shartnomaviy intizomga va umuman iqtisodiy muhit barqarorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga 2014-yil 4-sentabrdagi O‘RQ–373-sonli Qonun asosida 181<sup>1</sup>-modda kiritilib, qasddan bankrotlikka olib kelish uchun jinoiy javobgarlik belgilandi. Mazkur norma iqtisodiy muomalada halollik tamoyillarini ta‘minlash hamda kreditorlar huquqlarini jinoiy-huquqiy vositalar orqali himoya qilishga qaratilgan usullardan biri hisoblanadi. Qonunchilikka muvofiq, agar qarzdor pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablarini qondirishga yoki majburiy to‘lovlar bo‘yicha o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarishga qodir bo‘lmasa, u to‘lovga qobiliyatsiz deb e‘tirof etiladi. [2]

Korxonaning to‘lovga qobiliyatsiz deb topilishi uning boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar bilan tuzgan shartnomaviy munosabatlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi hamda ularning iqtisodiy manfaatlari va moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga sezilarli zarar yetkazishi mumkin. Shu bois mazkur huquqiy normaning asosiy maqsadi to‘lovga qobiliyatsiz deb e‘lon qilingan korxonalar bilan munosabatlarga kirishgan kreditorlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Mazkur jinoyatning bevosita obyekti mamlakatdagi xo‘jalik munosabatlari, davlat va tashkilotlarning iqtisodiy manfaatlari, shuningdek kreditorlar huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi ijtimoiy munosabatlardan iborat. Ushbu norma iqtisodiy muomalada barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Jinoyat obyektiv tomondan qasddan bankrotlikka olib kelish, ya‘ni to‘lovga qobiliyatsizlikni ataylab yuzaga keltirish yoki uni sun‘iy ravishda oshirish orqali sodir etiladi. Bunda shaxsning faol harakatlari natijasida xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy nochorlik holatiga tushib qoladi. Qasddan bankrotlikka olib kelish deganda, shaxsiy yoki boshqa shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab, yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxsning boshqaruv organi a‘zosi, kuzatuv kengashi tarkibiga kiruvchi shaxs, muassis yoxud mol-mulk mulkdori tomonidan to‘lovga qobiliyatsizlikni qasddan yuzaga keltirish yoki kuchaytirish natijasida ushbu subyektni iqtisodiy nochorlik holatiga olib kelish tushuniladi.

To‘lovga qobiliyatsizlikni qasddan yuzaga keltirish yoki oshirish, avvalo, qarzdorning pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablarini ataylab qondirmasligida yoki majburiy to‘lovlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarish imkoniyati mavjud bo‘la turib, ularni bajarmasligida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, majburiyat yuzaga kelgan kundan boshlab uch oy davomida, shaharni tashkil etuvchi va unga tenglashtirilgan korxonalar uchun esa olti oy mobaynida tegishli majburiyatlarning qasddan bajarilmasligi ham mazkur holatni anglatadi.

Qasddan bankrotlikka olib kelish alomatleri iqtisodiy sudlar tomonidan qarzdor to'lovga qobiliyatsiz deb e'tirof etilib, tugatish jarayoni boshlanganidan keyin aniqlanadi. Bunda qarzdor uchun majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'lgan yoki uning faoliyatini belgilash imkoniyatiga ega shaxslarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari to'lovga qobiliyatsizlikka sabab bo'lgan degan asoslar mavjud bo'lishi lozim. Yuridik shaxsning to'lovga qobiliyatsizligi uning muassisi yoki mol-mulki mulkdori tomonidan majburiy ko'rsatmalar berish huquqidan to'lovga qobiliyatsizlik oqibatlarini oldindan bilgan holda, aynan shu natijani yuzaga keltirish maqsadida foydalanilgan taqdirdagina qasddan to'lovga qobiliyatsizlikka olib kelish sifatida baholanadi.

Qarzdorning qasddan to'lovga qobiliyatsizlikka olib kelish alomatleri, avvalo, uning to'lovga qobiliyatsizlik yuzaga kelishini oldindan bilgan holda muayyan g'ayriqonuniy xatti-harakatlarni sodir etishida namoyon bo'ladi. Bunda shaxs o'z harakatlari oqibatida korxonaga yoki yakka tartibdagi tadbirkor iqtisodiy nochorlik holatiga tushib qolishini anglagan holda faoliyat yuritadi.

Bunday harakatlar, xususan, pul mablag'lari va boshqa mol-mulkdan qarzdorga qasddan zarar yetkazadigan tarzda foydalanishda ifodalanadi. Moliyaviy resurslarning maqsadsiz yoki shaxsiy manfaat yo'lida sarflanishi korxonaga aktivlarining kamayishiga va to'lov qobiliyatining pasayishiga olib keladi. Shuningdek, to'lov intizomini muntazam ravishda buzish, shartnoma majburiyatlarini bajarimaslik yoki asossiz ravishda kechiktirish ham bankrotlikka olib keluvchi omillardan biridir. Bunday harakatlar xo'jalik aloqalarining izdan chiqishiga va kreditorlar oldidagi majburiyatlarning ortib borishiga sabab bo'ladi.

Mol-mulki balans qiymatidan ancha past narxda sotish yoki uni tekin berish ham qasddan bankrotlik alomatlaridan hisoblanadi. Bu holatda aktivlar sun'iy ravishda kamaytiriladi va korxonaning real moliyaviy imkoniyatlari zaiflashtiriladi.

Qarzdorning muddati o'tgan debitorlik qarzlarini undirish bo'yicha belgilangan muddatlarda zarur choralarini ko'rmasligi ham iqtisodiy nochorlikni chuqurlashtiradi. Debitorlik qarzlarini undirish choralari ko'rilmaligi pul oqimining uzilishiga va majburiyatlarning bajarilmaligiga olib keladi.

Bundan tashqari, asosiy faoliyatga jalb etilgan aktivlarning 50 foizidan ortig'ini boshqa shaxslarga berish korxonaning ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish salohiyatini keskin pasaytiradi. Natijada xo'jalik yurituvchi subyekt o'z majburiyatlarini bajarish imkoniyatidan mahrum bo'lishi mumkin.

Ijro etuvchi organ yoki kuzatuv kengashi tomonidan ularning vakolatiga kirmaydigan yirik bitimlarning tuzilishi ham qasddan bankrotlikka olib kelishning muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Bunday bitimlar ko'pincha iqtisodiy asosga ega bo'lmaydi va korxonaga manfaatlariga zid ravishda tuziladi.

Mazkur harakatlarning barchasi to'lovga qobiliyatsizlik oqibatlarini oldindan anglagan holda sodir etilgan bo'lsa va natijada korxonaga iqtisodiy nochorlik holatiga tushib qolsa yoki kreditorlarga ko'p miqdorda zarar yetkazilsa, ular qasddan to'lovga qobiliyatsizlikka olib kelish sifatida baholanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 14 avgustdagi 224-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Soxta to'lovga qobiliyatsizlik, to'lovga qobiliyatsizlikni yashirish va qasddan to'lovga qobiliyatsizlikka olib kelish alomatlarini aniqlash qoidalari"ga asosan, qarzdorni qasddan bankrotlikka olib kelish alomatlarini aniqlash ikki bosqichda amalga oshiriladi. [3]

Birinchi bosqichda qarzdorning to'lov qobiliyati yuqorida ta'kidlangan hujjatning 13 va 17-bandlarida belgilangan ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinadi. Xususan, 13-bandga muvofiq, qarzdor majburiyatlarining ta'minlanganligi uning barcha aktivlari bilan belgilanadi, ya'ni balans valyutasidagi joriy majburiyatlar summasi bilan taqqoslab, qarzdorning qarz birligiga mos keladigan aktivlar miqdori hisoblanadi. Shuningdek, 17-bandga binoan, kreditorlarning pul majburiyatlari bo'yicha talablar yoki majburiy to'lovlar bo'yicha majburiyatlarni ta'minlash ko'rsatkichlarini aniqlashda, majburiyat tarkibida asosiy qarz qiymatidan tashqari, e'tirof etilgan jarimalar, penyalar va boshqa moliyaviy sanksiyalar ham hisobga olinadi. Birinchi bosqichda ushbu ko'rsatkichlar orqali qarzdorning kreditorlar oldidagi majburiyatlari ta'minlanganligi va o'rganilayotgan davr mobaynida yuz bergan o'zgarishlar aniqlanadi.

Ikkinchi bosqichda esa majburiyatlarni ta'minlash ko'rsatkichlarida sezilarli yomonlashish aniqlanganda, qarzdorning ushbu davrda amalga oshirgan bitimlari va boshqaruv organlarining harakatlari tahlil qilinadi. Bu tahlil bitimlar va qarzdor harakatlarining qonuniyligi, bozor sharoitlariga mosligi hamda qarzdorga zarar yetkazgan holatlarni aniqlashga qaratiladi. Sezilarli yomonlashish deganda – biror choraklik davrda ko'rsatkichlarning pasayish sur'ati o'rganilayotgan davrdagi o'rtacha pasayish sur'atidan oshgan holat sifatida tushuniladi.

Qarzdorning bitimlarini tahlil qilishda bitimlar va boshqaruv organlarining harakatlari qonuniyligi, bozor sharoitlariga mos kelmagan shartlarda tuzilgan bitimlar, va qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligiga yoki ko'payishiga sabab bo'lgan bitimlar aniqlanadi. Barchasini birma-bir izohlaydigan bo'lsak, bozor sharoitlariga mos kelmagan bitimlar deganda qarzdorning aktivlarini kam likvidli aktivlarga almashtirish yoki mol-mulkni boshqa shaxsga berish bo'yicha bitimlar, foyda keltirmaydigan va qarzdorning xo'jalik faoliyatini to'xtatgan oldi-sotdi bitimlar, mol-mulk bilan ta'minlanmagan majburiyatlar yoki likvid bo'lmagan mol-mulk sotib olishga olib kelgan bitimlar tuzish, shuningdek ba'zi majburiyatlarni foyda keltirmaydigan shartlarda boshqa majburiyatlar bilan almashtirish bitimlari tushuniladi. Shuningdek, qarzdor uchun oldindan ma'lum bo'lgan foyda keltirmaydigan shartlar quyidagilar deganda bozor sharoitlariga nisbatan narxlarning oshishi yoki pasayishi, to'lov muddatlari va shakllarining qarzdor uchun noqulayligi, mol-mulkni boshqa shaxsga berish yoki unga majburiyat yuklash tushuniladi, agarda qarzdorlik miqdori kamaymagan bo'lsa.

Jinoyat kodeksining 181<sup>1</sup>-moddasida nazarda tutilgan qilmish moddiy tarkibli jinoyat hisoblanadi. Ya'ni, jinoyat faqat uning natijasida oqibati kelib chiqsagina javobgarlik kelib chiqadi. Jinoyat oqibatga yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxsning barqaror iqtisodiy nochorligiga olib kelish kreditorlarga ko'p miqdorda zarar yetkazish hisoblanadi. Yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxsning barqaror iqtisodiy nochorligi – bu iqtisodiy sudlar tomonidan ularning majburiyatlarini to'la bajarishga qodir emasligi e'tirof etilgan holatidir.

O'zbekiston Respublikasining "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra [4], kreditorlar qarzdor pul majburiyatlari bo'yicha yoki soliqlar hamda yig'imlar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish yuzasidan qaysi yuridik yoki jismoniy shaxslar oldida javobgar bo'lsa, ayni shu yuridik yoki jismoniy shaxslardir. Shu bilan birga, qarzdorning shaxsiy hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'lgan shaxslar ham kreditor sifatida hisoblanadi.

Mazkur jinoyatning subyekti maxsus subyekt hisoblanadi. Ya'ni jinoyatning subyekti umumiy ravishda jismoniy shaxs bo'lishi, aqli raso va kamida 16 yoshga to'lgan bo'lishi talab etiladi va bundan tashqari, jinoyat sodir etuvchi shaxs yakka tartibdagi tadbirkor, yuridik shaxsning mansabdor shaxsi, yuridik shaxs muassisi yoki ishtirokchisi, hamda mol-mulking mulkdori bo'lishi talab etiladi. Yakka tartibdagi tadbirkor esa tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshiradigan, davlat ro'yxatidan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida o'tgan jismoniy shaxs hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 180 va 181-moddalari xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qilinadigan moliyaviy jinoyatlarni tartibga soladi. Ushbu moddalarda nazarda tutilgan qilmishlar bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ularning mohiyati va jinoyat tarkibiy elementlari jihatidan sezilarli farqlar mavjud.

Xususan, Jinoyat kodeksining 181-moddaga binoan to'lovga qobiliyatsizlikni yashirish jinoyati subyektning haqiqiy moliyaviy holatini qasddan yashirishga qaratilgan. Xo'jalik yurituvchi subyekt haqiqatda o'z majburiyatlarini bajara olmaydi, lekin bu holatni yashirish uchun noto'g'ri ma'lumotlar taqdim qiladi. Natijada, kreditorlar zarar ko'radi. Shu sababli, jinoyatning asosiy mohiyati haqiqatni qasddan yashirishdir.

Jinoyat kodeksining 180-moddasiga binoan soxta to'lovga qobiliyatsizlik jinoyati esa subyekt ataylab haqiqatga to'g'ri kelmaydigan e'lon beradi. Bunda xo'jalik yurituvchi subyekt aslida o'z majburiyatlarini bajarishga qodir bo'lishiga qaramay, ularni bajarishdan bo'yin tovlab, o'zini to'lovga qobiliyatsiz deb e'lon qiladi. Bu harakat natijasida kreditorlarga zarar yetadi. Jinoyatning mohiyati – soxta ko'rsatish va ataylab noto'g'ri e'lon berishdir.

Subyektning xatti-harakati ikki jinoyatda ham farq qiladi. 181-moddada jinoyat sodir etuvchi shaxs moliyaviy qobiliyatsiz bo'lib, bu holatni yashiradi, 180-moddada esa shaxs moliyaviy jihatdan to'lovga qodir bo'lishiga qaramay, ataylab harakatlar orqali kreditorlarga zarar yetkazadi.

Rivojlangan davlatlarda to‘lovga qobiliyatsizlik ko‘pincha iqtisodiy jarayon sifatida tartibga solingan bo‘lsa-da, uning qasddan yashirilishi yoki soxtalashtirilishi alohida jinoyat sifatida belgilanadi. Bu yondashuv to‘lovga qobiliyatsizlik jarayonining adolatli, shaffof va kreditorlar manfaatlariga zarar yetkazmasdan amalga oshirishini ta‘minlashga qaratilgan. Bunday jinoyatlar xalqaro huquqiy tizimlarda jiddiy jazolar bilan jazolanadi, chunki ular bozorlarga bo‘lgan ishonchni susaytiradi va moliyaviy barqarorlikka salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Ko‘pgina Yevropa Ittifoqi davlatlarida bankrotlik va qasddan to‘lovga qobiliyatsizlik tartibi huquqiy asosga ega. Yevropa ittifoqi doirasida a‘zolar aktivlarni bo‘lishdan oldin yashirish, aktivlarni noto‘g‘ri taqsimlash kabi xatti-harakatlarni oldini olishga qaratilgan yagona qoidalar bo‘yicha hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha yo‘nalishlar ishlab chiqilmoqda. Bunga misol sifatida 2025-yil noyabrda qabul qilingan yechim loyihasini keltirishimiz mumkin. Unda korxonalar moliyaviy qiyinchilikni anglashi bilan uch oy ichida to‘lovga qobiliyatsizlik ishini ochish majburiyati kiritiladi va aktivlarni yashirishga qarshi qattiq qoidalar joriy etiladi. Bu holatlar jinoyatlarni kamaytirishga ham xizmat qiladi. [5]

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlarda to‘lovga qobiliyatsizlik tartiblari turlicha bo‘lib, ayrim davlatlarda bankrotlik tizimi qanchalik puxta yaratilganiga qarab jinoyat holatlari farq qiladi. Masalan, Kanada, Avstraliya va AQSh kabi davlatlar odatda bizneslar va tadbirkorlik bankrotligini boshqarish bo‘yicha qulay va shu bilan birga xatarlarga qarshi mexanizmlarga ega. Bular to‘lovga qobiliyatsizlikka choralari, kreditorlar huquqlarini himoya qilish va sud tartibida tezkor hal etish choralari o‘z ichiga oladi. Bunday tizimlar jarayonlarni kechiktirmaslik va aktivlarni noto‘g‘ri yashirishning oldini olishga imkon beradi. [6]

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti yondashuvida bir qancha mamlakatlar boshqalarga nisbatan bankrotlik rejimi samarali baholanadi. Masalan, Germaniya, Daniya, Finlyandiya, Shvetsiya kabi davlatlarda barqaror moliyaviy aktivlar, tezroq sud protseslarini o‘tkazish hamda shu bilan birga bankrotlikka mexanizmlari – ya‘ni erta ogohlantirish va qayta tuzish rejimlari mavjudligi sababli bankrotlik jinoyatlarining ko‘rsatkichlari past bo‘lishi kuzatiladi. Bu yondashuvlar kreditorlar va qarzdorlar uchun shaffof mexanizmlarni yaratib, qasddan nohaq xatti-harakatlarni kamaytiradi.

Xalqaro darajada chegaralararo bankrotlik bo‘yicha BMT Xalqaro Savdo Komissiyasining model qonuni 23 dan ortiq yurisdiksiyada qabul qilinib, moliyaviy jinoyatlar va aktivlarni yashirish holatlarini ikki yoki undan ortiq davlatlararo bog‘liq holatlarda ham hal etishda qo‘llanmoqda. Bunday mexanizmlar davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi va sudlar hamda kreditorlar uchun aktivlarni yashirish holatlarini aniqlashni qulaylashtiradi. [7]

Umuman olganda, jinoyat darajasi past bo‘lgan davlatlarda hujjatlar va moliyaviy hisobotlar uchun qat‘iy talablar, erta ogohlantirish, kreditorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlari, sud tomonidan tezkor va shaffof hal etish jarayonlari, hamda moliyaviy aktivlarni yashirishga qarshi maxsus normalar samarali ishlamoqda. Bunday to‘liq tizimlar qasddan to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelish holatlarini kamaytiradi va kreditorlar barqaror himoya topadi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelish bilan bog‘liq jinoyat AQSH jinoyat kodeksi orqali tartibga solinadi. Federal darajada “bankrotlik firibgarligi” deb nomlangan bu jinoyat kodeksining 18-paragrafi, 152–157 moddalari bilan tartibga solinadi. Mazkur qoidalarga ko‘ra, moliyaviy hisobotlarni soxtalashtirish, aktivlarni yashirish yoki hujjatlarda noto‘g‘ri ma‘lumot keltirish orqali kreditorlarga zarar yetkazish jinoyat sifatida tan olinadi.

AQShda bunday jinoyat sodir etilsa, aybdorlar uchun jarima, moliyaviy jazolar, hamda ayrim holatlarda ozodlikdan mahrum qilish jazo choralari belgilangan. Sanksiyaga ko‘ra ushbu jinoyatda aybdor shaxs 20 yilgacha ozodlikdan mahrum etilishi mumkin. Bu tartib bankrotlik jarayonining ochiqligi va adolatini ta‘minlashga xizmat qiladi. [8]

Buyuk Britaniyada bankrotlik huquqi 1986-yilda qabul qilingan “Bankrotlik to‘g‘risidagi akt” orqali tartibga solinadi. Ushbu qonun to‘lovga qobiliyatsizlik masalalarini belgilabgina qolmay, bankrotlik jarayonida firibgarlik va noto‘g‘ri boshqaruv kabi jinoyatlarni ham belgilab beradi. Sud amaliyotida bu turdagi jinoyatlar kreditorlarga zarar yetkazish maqsadida shaxs yoki yuridik shaxs

tomonidan moliyaviy aktivlarni noto'g'ri taqsimlash yoki yashirish orqali amalga oshirilgan xatti-harakatlar sifatida baholanadi. Bunday jinoyatlar bo'yicha aybdorlar nafaqat jazo, balki sud qarori bilan direktorlik lavozimidan cheklanish kabi qo'shimcha jazolarga ham tortiladi.

Germaniyada to'lovga qobiliyatsizlik bilan bog'liq jinoyat huquqi aynan jinoyat kodeksida tartibga solingan. Bu tizim to'lovga qobiliyatsizlik jarayonida aktivlarni yashirish, hujjatlarni soxtalashtirish yoki buxgalteriya ma'lumotlarini noto'g'ri ko'rsatish kabi holatlarni qamrab oladi. Masalan, mol-mulkni yashirib yoki noto'g'ri hisobot berib kreditorlar manfaatlariga zarar yetkazilsa jinoyat sifatida baholanadi. Bunday jinoyatlar bo'yicha aybdorlar uchun jarima yoki ozodlikdan mahrum qilish jazo choralari, shuningdek professional faoliyatdan cheklanish choralari qo'llanadi, bu huquqiy tizimning bankrotlik sohasida firibgarlikni keskin kamaytirishga intilishini ko'rsatadi. [9]

Fransiyada bankrotlik bilan bog'liq firibgarlik Savdo kodeksi asosida tartibga solinadi. Bu qonunchilik bo'yicha hujjatlarni soxtalashtirish, aktivlarni yashirish yoki noto'g'ri hisobot orqali kreditorlarga zarar yetkazish jinoyat hisoblanadi. Jinoyat aniqlangan taqdirda aybdorlar uchun 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish va jarima kabi jazolar berilishiga sabab bo'ladi. [10]

Xitoyda esa to'lovga qobiliyatsizlik qonunchiligi jinoyat kodeksi bilan mustahkamlangan. [11] Aktivlarni yashirish yoki moliyaviy hisobotlarni soxtalashtirish uchun 7 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosiga tortish mumkin, bu mamlakatning bankrotlik sohasidagi qat'iy siyosatini aks ettiradi.

Rivojlangan davlatlarda bankrotlik qonunlari ko'pincha oldindan ogohlantirish tizimlarini ham o'z ichiga oladi. Bu tizimlar tashkilot balanslaridagi o'zgarishlar, aktivlarning pasayishi yoki majburiyatlarning o'sish belgilarini erta aniqlash orqali moliyaviy qiyinchilik holatlarini oldindan aniqlashga xizmat qiladi. Masalan, Yevropa Ittifoqi muayyan davlatlarida bankrotlik alomatlarini erta aniqlash tizimlari yaxshi ishlaydi, bu esa tashkilotlarni faoliyatni to'xtatishdan oldin moliyaviy holatni tuzatish yoki qayta tuzish choralari ko'rishga undaydi. Bunday tizimlar ham kreditorlarning manfaatlarini himoya qilish, ham bu kabi jinoyatlarni oldini olishga yordam beradi. [12]

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, to'lovga qobiliyatsizlik bilan bog'liq jinoyatlar nafaqat iqtisodiy jarayon, balki jiddiy jinoyat sifatida tartibga solingan. Rivojlangan davlatlar bu yo'nalishda qonunchilikni qat'iy belgilab, qasddan to'lovga qobiliyatsizlikka olib kelish harakatlari uchun alohida jazo choralari joriy qilgan. Ko'pgina yurisdiksiyalarda bankrotlik firibgarligi aniqlangan taqdirda, aybdorlar ozodlikdan mahrum qilish, moliyaviy jarima va professional faoliyatdan cheklanish kabi choralarga tortiladi. Bu choralar nafaqat jinoyatchilarni jazolashga, balki kelgusida bunday xatti-harakatlarning oldini olishga ham xizmat qiladi. [13]

Moliyaviy shaffoflik, avvaldan ogohlantirish tizimlari va kompaniya boshqaruv organlarining mas'uliyati kuchaytirilgan tizimlar bu kabi jinoyatlarni erta bosqichda aniqlanishini ta'minlaydi. Bu esa kreditorlar manfaatlarini himoya qilish va iqtisodiy barqarorlikni saqlashda muhim vosita hisoblanadi. [14]

Shu bilan birga, xalqaro tajribalar bizning mamlakatimiz uchun ham qimmatli yo'l-yo'riqdir. To'lovga qobiliyatsizlik bilan bog'liq jinoyatlarni oldini olish va jazolash tizimi dastlabki bosqichdan — tashkilot moliyaviy holatini shaffof va qonuniy usulda boshqarishdan boshlanishi zarur.

Umuman olganda, to'lovga qobiliyatsizlik masalalarida xalqaro tajribadan foydalanish, qonunchilikni yanada mukammallashtirish va amaliy choralarni kuchaytirish orqali iqtisodiy jinoyatlar xavfini sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. (Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. – Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan). <https://lex.uz/docs/111453>
2. O'zbekiston Respublikasining "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi Qonuni. (Law of the Republic of Uzbekistan "On Insolvency". – Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan). <https://lex.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 14-avgustdagi 224-son qarori "Soxta to'lovga qobiliyatsizlik, to'lovga qobiliyatsizlikni yashirish va qasddan to'lovga qobiliyatsizlikka olib kelish alomatlarini aniqlash qoidalari to'g'risida". (Resolution of the Cabinet

- of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 224 of 14 August 2013 “On Approval of the Rules for Identifying Signs of False Insolvency, Concealment of Insolvency and Intentional Insolvency”. – Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan). <https://lex.uz/docs/2211467>
4. O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi. (Economic Procedural Code of the Republic of Uzbekistan. – Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan). <https://lex.uz/docs/3527303>
  5. Yevropa Ittifoqi. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunchilikni uyg‘unlashtirish tashabbusi (2025). (European Union Insolvency Laws Harmonisation Initiative (2025). – European Union). <https://www.reuters.com/business/finance/eu-agrees-harmonise-eu-insolvency-laws-enhance-cross-border-investments-capital-2025-11-20>
  6. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti. Turli mamlakatlarda to‘lovga qobiliyatsizlik tizimlarini loyihalash. (OECD. Design of Insolvency Regimes Across Countries. – OECD Publishing, 2018). <https://www.oecd.org/publications/design-of-insolvency-regimes-across-countries-2018-9789264301234-en.htm>
  7. BMT Xalqaro savdo huquqi komissiyasi. Transchegaraviy to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha Namunaviy qonun. (UNCITRAL Model Law on Cross-Border Insolvency. – United Nations, 1997). [https://uncitral.un.org/en/texts/insolvency/modellaw/cross-border\\_insolvency](https://uncitral.un.org/en/texts/insolvency/modellaw/cross-border_insolvency)
  8. AQSh Jinoyat kodeksi, 18-sarlavha, 152–157-moddalar. (United States Code Title 18. §§ 152–157 (Bankruptcy Fraud). – United States Congress). <https://www.law.cornell.edu/uscode/text/18/part-I/chapter-9>
  9. Germaniya Federativ Respublikasining Jinoyat kodeksi. (Strafgesetzbuch (German Criminal Code). – Federal Republic of Germany). [https://www.gesetze-im-internet.de/englisch\\_stgb/](https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stgb/)
  10. Fransiya Respublikasining Savdo kodeksi. (Code de commerce (French Commercial Code). – French Republic). [https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte\\_lc/LEGITEXT000005634379](https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte_lc/LEGITEXT000005634379)
  11. Xitoy Xalq Respublikasining Jinoyat kodeksi. (Criminal Law of the People’s Republic of China. – National People’s Congress of China). <http://www.npc.gov.cn/englishnpc/c23934/202012/>
  12. Yevropa Parlamenti va Kengashining 2019-yil 20-iyundagi 2019/1023-son Direktivasi (preventiv restrukturizatsiya tizimlari to‘g‘risida). (Directive (EU) 2019/1023 of the European Parliament and of the Council of 20 June 2019 on preventive restructuring frameworks). <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:32019L1023>
  13. Buyuk Britaniyaning 1986-yilgi “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi Akti. (Insolvency Act 1986. – United Kingdom Parliament). <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1986/45>
  14. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti. Korporativ boshqaruv va to‘lovga qobiliyatsizlik tizimlari bo‘yicha hisobotlar. (OECD Corporate Governance and Insolvency Framework Reports. – OECD Publishing). <https://www.oecd.org/corporate/>

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

### JOURNAL OF LAW RESEARCH

#### Taqdim etilayotgan maqolalarga qo'yilgan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida qabul qilinadi va Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan bo'lishi shart. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
2. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni va e-mail, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
3. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida kamida 60 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
4. Keyingi qatordan 6-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
5. Keyingi qatordan asosiy matn umimiy so'zi minimal 2000 ta bo'ladi.
6. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim va havolalar asosiy matnda bo'lishi kerak [1, B.25].
7. Maqolada keltirilgan dalillarning to'g'riligi uchun muallif mas'ul, plagiat holati taqiqlanadi.
8. Web of science, Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.

#### Требования к оформлению научной статьи:

1. Статья принимается на узбекском, английском и русском языках и должна быть оформлена в Microsoft Word шрифтом Times New Roman, размер 12, межстрочный интервал — 1, поля со всех сторон — 2 см. Абзацный отступ — 1,25 см; выравнивание по ширине и переносы слов должны быть включены автоматически.
2. В первой строке справа указываются фамилия, имя и отчество автора; во второй строке — место работы автора, должность, ученая степень и звание, а также e-mail; в третьей строке по центру страницы крупным и жирным шрифтом — название статьи. Эти сведения должны быть приведены на узбекском, английском и русском языках.
3. Ниже дается аннотация на узбекском, английском и русском языках, содержащая не менее 60 слов на каждом языке.
4. Далее приводятся 6–10 ключевых слов на узбекском, английском и русском языках.
5. Далее основной текст: общий объем текста должен быть не менее 2000 слов.
6. Полный список литературы должен быть приведен после основного текста в алфавитном порядке; ссылки должны присутствовать в основном тексте в формате [1, C.25].
7. Автор несет ответственность за достоверность приведенных в статье доказательств; плагиат запрещен.
8. Рекомендуется цитирование журналов из база данных Web of Science и Scopus.

#### Requirements of the articles submitted:

1. Articles are accepted in Uzbek, English and Russian and must be prepared in Microsoft Word using Times New Roman font, size 12, single line spacing, with 2 cm margins on all sides. First-line indent is 1.25 cm; text should be justified and word hyphenation/line breaks set to automatic.
2. In the first line on the right: the author's surname, given name and patronymic; in the second line: the author's affiliation, position, academic degree and title, and e-mail; in the third line centered on the page: the article title in bold and uppercase (or bold). These details must be provided in Uzbek, English and Russian.
3. Next, provide an abstract in Uzbek, English and Russian of at least 60 words in each language.
4. Next, provide 6–10 keywords in Uzbek, English and Russian.
5. Next, the main text: total word count must be at least 2000 words.
6. The full list of references must appear after the main text in alphabetical order, and citations should appear in the main text in the format [1, P.25].
7. The author is responsible for the accuracy of the evidence presented in the article; plagiarism is prohibited.
8. It is advisable to include citations from journals indexed in Web of Science and Scopus.